



“BIR EKSPONAT TARIXI”

Buriyev Yo‘ldosh Tojimurodovich,

“Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi Ilmiy kotibi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603999>

Annotatsiya. Mazkur maqolada P.P.Benkov ijodiy faoliyati, u tomonidan yaratilgan hamda bugungi kunda dunyoning qator davlatlari muzeylarida saqlanib kelayotgan turli janrdagi rangtasvir asarlari, xususan, “Samarqand” davlat muzey-qo‘riqxonasi rangtasvir fondidagi “O‘rta asr Samarqandining Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi” nomli miniatyura nusxasi, asarning yaratilishi, unda tasvirlangan obrazlar va bu obrazlarning yaratilishiga g‘oyaviy jihatdan asos bo‘lgan o‘rta asrlar sharq miniatyura maktablarining o‘ziga xos yo‘nalishlari, o‘sha davr muhitini aks ettiruvchi miniatyura san’ati bilan bezatilgan tarixiy asarlar borasida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Miniatyura, fond, “Fathnoma”, “Boburnoma”, kartina, rassom, miniatyura maktablari.

Annotation. In this article, you can find out Benkov's creative activities, paintings of various genres created by him and preserved today in a number of museums around the world, in particular, a miniature copy of “the conquest of medieval Samarkand by Sheibani Khan” in the painting fund of the Samarkand State Museum-Reserve, served as the ideological basis for creating the work, the images depicted in it, and images of the medieval East. The specific directions of miniature schools, historical works decorated with miniature art reflecting the atmosphere of that time are considered.

Keywords: Miniature, foundation, Fatkhnameh, Baburname, painting, artist, miniature schools.

Pavel Petrovich Benkov taniqli rassom, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, Samarqand rassomchilik maktabi asoschilaridan biridir.

1879 yilda Qozon shahrida tug‘ilgan. Sankt-Peterburg Badiiy akademiyasida tahsil olgan.

1909-1929 yillarda Qozondagi rassomlik maktablarida rassomchilikdan dars beradi. 1929-yilda “Inqilobiy Rossiya rassomlari uyushmasi”ga a‘zo bo‘ladi.

1929-yilda Benkov O‘zbekistonga keladi. Bu davr Benkovning ijodiy faoliyatida eng muhim va samarali davr edi.

Bu yerda Benkov iste’dodining individual xususiyatlari to‘liq namoyon bo‘ldi, u chinakam usta-rassomga aylandi. 1930 yildan Samarqand rassomlik bilim yurtida rassomchilikdan dars berdi, mahalliy o‘zbek rassomlarini tayyorladi.

O‘zbekistonda yashab o‘tgan davrida yaratgan turli janrdagi tarixiy rasmlarida, shuningdek, portretlarida P.P.Benkov bu yerda yashovchi xalqlarning milliyligi, hayoti, tabiatining rang-barangligini tasvirlagan.

P.P.Benkov ijodining asosiy mavzularida an’anaviy hayot tarzi (bozor, choyxona va boshqalar) aks etgan kompozitsiyalar katta o‘rin egallagan (zavod va paxta dalalari, partiya qurultoylari va hokazolar).



Benkov asarlarida rus akademik va realistik san'ati maktabi tomonidan yaratilgan kompozitsion uyg'unlik, strukturaviy shakl va tabiiy qarashlar impressionizm yo'nalishi bilan uyg'unlashgan. Shu boisdan **Pavel Benkovni o'zbek impressionisti** deb ham atashadi,

Ayniqsa, bu yo'nalishda yaratilgan “Samarqand, Buxoro, Xivaga bag'ishlangan asarlari mashhurdir. P.Benkov turli janrlarda Samarqandning shonli tarixi, o'tmishi, hokimiyat uchun siyosiy kurash jarayonlari, ko'cha va bog'lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o'ziga xos go'zalligini yorqin ifodalovchi hayotiy asarlar ham yaratgan. Ma'lumki, har bir xalq boshqa davlatning urf-odatlarini, ma'naviy qadriyatlarini e'zozlaydigan va ulug'laydigan vakillarini hurmat qiladi. Rossiyalik Pavel Benkov O'zbekiston uchun aynan shunday hurmatga sazovor bo'lgan rassom edi.

Aynan Samarqanddagi ijod davri Benkovni dunyoga tanitdi. Uning o'sha paytda chizilgan asarlari hozirda ko'plab mamlakatlardagi muzeylarda xususan, Moskva (Davlat Tretyakov galereyasi, Sharq xalqlari davlat muzeyi, Rossiya zamonaviy tarixi davlat muzeyi), Qozon (Tatariston Respublikasi Davlat Tasviriy san'at muzeyi, Tatariston Respublikasi Milliy muzeyi), Toshkent (O'zbekiston Davlat san'at muzeyi), Buxoro (Buxoro davlat arxitektura-san'at muzey-qo'riqxonasi) va boshqa shaharlarda, shuningdek, Rossiya, O'zbekiston hamda bir qator Yevropa davlatlarining shaxsiy kolleksiyalarida shuningdek, Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi rangtasvir fondida yuzga yaqin rangtasvir va grafika asarlari saqlanib kelmoqda. Ana shunday asarlardan biri “O'rta asr Samarqandining Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi” nomli miniatyura nusxasidir.

P.P.Benkov muzey fondida saqlanayotgan mazkur asarini o'z uslubiga xos bo'lmagan yo'nalishda muzey buyurtmasiga asosan 30-yillarda yaratgan. Chunki, P.Benkov ijodidagi asosiy yo'nalish miniatyura emas edi. Miniatyura nusxasi 170x215 sm o'lchamda. Asar 1932 yilda muzey fondiga topshirilgan (Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 5- sonli ilmiy-yordamchi fond kiritilgan kitobi, 260-261-betlar). Benkov miniatyura yo'nalishida ijod qilgan musavvirlar orasida sharqona miniatyuralarga xos bo'lgan rang kombinatsiyalarining an'anaviyligi va kontrastiga intilmagan yagona rassomdir.

Uning bu janrdagi asarlarida polifonik ohanglar, yorug'lik va soyaning nozik va murakkab o'yini, havoning kumushrang tuslarini mohirlik bilan etkazuvchi ranglar uyg'unligi ustunlik qiladi. Rassom rang ohanglarini tanlashga alohida ahamiyat beradi. Dastlab, bu turdagi dizayn yuqori qatlam buyrug'i bilan amalga oshirilgan va qo'lda yozilgan kitoblar, qimmatli qo'lyozmalar va yilnomalarning ajralmas qismi hisoblangan. Ularni yaratish uchun rassomdan katta mahorat va professionallik talab etilgan, chizma qanchalik nozik va yorqin bo'lsa, miniatyura shunchalik yuqori baholangan.

P.P. Benkov tomonidan yaratilgan “O'rta asr Samarqandining Shayboniyxon tomonidan bosib olinishi” miniatyura nusxasi ham ana shunday katta mahorat va professionallik bilan ijro etilgan bo'lib, miniatyurada Zahiriddin Muhammad



Boburning “Boburnoma” hamda muallifi kam tanilgan va ijodkorligi bilan ajralib turmaydigan mahalliy shoir Nizomiddin Shodining “Fathnoma” , shu bilan bir qatorda sharq miniatyura san’ati tarixida o‘ziga xos o‘rin egallagan Shayboniylar va Boburiylar davri miniatyura maktablari mualliflari asarlarida aks ettirilgan Shayboniyxon va Bobur o‘rtasidagi jang sahnalari, harbiy yurishlar aniqlik bilan tasvirlangan.

Shu boisdan, bu boradagi fikrlarni inobatga olib, P.P.Benkovning muzey buyurtmasiga asosan yaratilgan mazkur asari turli miniatyura maktablarida ijod qilgan buyuk musavvirlar miniatyura asarlaridan olingan obrazlar ta’sirida dunyoga kelgan va asar yaratilishiga “Fathnoma” hamda “Boburnoma” kabi asarlar ham g‘oyaviy jihatdan ta’sir ko‘rsatgan deya, aytish mumkin.

Sharq miniatyura san’ati tarixida qator maktablarni o‘ziga biriktiruvchi to‘rtta asosiy davr mavjud:

1. Temuriylar davri- Xuroson va Movarounnahr- Hirot, Samarqand, Tabriz, Sheroz maktablari.
2. Safaviylar davri- Eron- Sheroz, Tabriz, Mashhad, Isfaxon maktablari.
3. Shayboniylar davri- O‘rta Osiyo- Buxoro, Samarqand maktablari.
4. Boburiylar davri- Hindiston- Agra, Dehli maktablari. [1. B.11]

Bu maktablar o‘z davri uchun alohida rivojlanish tendensiyasi, o‘ziga xos uslubi, yo‘nalishlari hamda dunyoga mashhur yetuk musavvirlari bilan nom taratgan. Ana shunday shaxslardan biri Shayboniylar hukmronligi davrining ilk miniatyuralarida o‘z asarlari bilan bir necha bor tilga olingan tarixchi mulla Muhammad Shodiydir. Uning Shayboniyxon (1502-1507) g‘alabalari yilnomasi hisoblangan “Fathnoma” asari o‘z miniatyuralari bilan alohida ajralib turadi. “Fathnoma”da keltirilgan barcha obrazlar P.Benkov asarida o‘ta aniqlik bilan aks ettirilgan. Asardagi miniatyuralarda Shayboniyxonning Movaronnahrdagi janglari tasvirlangan. Bu miniatyuralar boshqalaridan farqli o‘laroq, ko‘chmanchi turmush belgilari va jangovarlik ruhini ifodalaydi.

Miniatyuraning tarkibi va tarixiy aniqligi yillar davomida qiziqarliligi bilan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. O‘rta Osiyoning shimoli-g‘arbiy cho‘l mintaqasi Dashti Qipchoq o‘zbeklarining boshlig‘i Shayboniyxon XVI asr boshlarida temuriylar davlati hududlarini bosib oladi. Ular temuriylar sulolasining vakili Zahiriddin Muhammad Bobur himoya qilgan Samarqand shahrini to‘rt oylik uzoq qamalga tutadilar. Shayboniyxonga shaharning Ohanin darvozasi oldidagi hal qiluvchi janggi g‘alaba olib keladi va Bobur Samarqandni tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ladi.

Bu voqea “Fathnoma”ga qo‘shilgan miniatyurada o‘z aksini topgan. Bu yerda Samarqandning qudratli devorlari va mustahkam qo‘rg‘onlari ko‘rsatilgan, devorlarda uning so‘nggi himoyachilari bo‘lgan, ammo shaharliklar allaqachon darvozadan haydab chiqarilgan. Otiqlar hujumga o‘tishmoqda, o‘ng tomonda esa ot ustida o‘tirgan Shayboniyxon buyruq bermoqda. Rang, odatdagidek, Hirot maktabi uchun juda boy va nafis emas, balki quyoshda kuydirilgan dashtning cheksiz oltinlufar gullari bilan to‘ldirilgan. “Fathnoma”da yettita miniatyura mavjud bo‘lib,



ularning ba'zilar yosh jihatda tarixan qadimiydir. Syujetlar Shayboniyxonning siyosiy maydonga chiqishi voqealari bilan bog'liq. Xon o'zining eng yaqin safdoshlari ishtirokida tasvirlangan.

Oxirgi uchta miniatyura uning harbiy jasoratini aks ettiradi. So'nggi miniatyura Samarqandning qo'lga kiritilishiga bag'ishlangan bo'lib, uning ta'rifini bizga Shayboniyxonning raqibi Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida keltirib o'tgan. [2, B.47]

Miniatyuralar tajribali musavvir tomonidan yaratilgan, ularning chizmalari aniq, palitrasi rang-barang. Sahnalardagi obrazlar katta, ularda o'zbek millatiga alohida urg'u berilgan.

Hiroat, Buxoro, Samarqand, Sheroz, Tabriz miniatyura san'atining mahorati va eng yaxshi an'analarini o'zida mujassam etgan “Boburnoma” miniatyuralarida ham Boburning Movarounnahrda faoliyati, Andijon taxtiga o'tirishi, Shayboniyxonga qarshi Samarqandda olib brogan janglari, kundalik mashg'ulotlari nihoyatda aniqlik bilan tasvirlangan.

Miniatyuradagi turli xil obrazlar sharq miniatyura san'ati tarixidan joy olgan maktablar an'analarini o'zida mujassamlashtirgan.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi rangtasvir fondida saqlanayotgan P.Benkovning miniatyura nusxasi noyob durdonalardan biri sifatida muzeyda tashkil qilinayotgan ko'plab ko'rgazmalarda namoyish etib kelinmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Boburnoma rasmlari. Toshkent. 1969.
2. Пугаченкова Г. А. Среднеазиатские миниатюры (XVI—XVIII веков в избранных образцах). Ташкент
3. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi 5- sonli ilmiy-yordamchi fond kirim kitobi
4. O'zbekiston milliy-ensiklopediyasi. Tom. 2. Toshkent. 2005.